


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA – QURILISH INSTITUTI**

«AVTOMOBIL YO‘LLARI,ZAMIN VA POYDEVORLAR» KAFEDRASI

**«MUHANDISLIK GEOLOGIYASI», «MUHANDISLIK GEOLOGIYASI VA
GIDROGEOLOGIYASI», « MUHANDISLIK GEOLOGIYASI VA GRUNTLAR
MEXANIKASI», «GEOLOGIYA, MINERALOGIYA VA PETROGRAFIYA
ASOSLARI» fanlaridan laboratoriya hamda amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish
uchun**

USLUBIY QO‘LLANMA



Samarkand – 2016 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA – QURILISH
INSTITUTI**

«AVTOMOBIL YO‘LLARI, ZAMIN VA POYDEVORLAR» KAFEDRASI

Institutning ilmiy-uslubiy
kengashida ko‘rib chiqildi va
chop etishga ruxsat berildi.
Ro‘yxatga olindi: _____
Bayonnoma № _____

“ ____ ” _____ 2016yil.

“TASDIQLAYMAN”
Institutning ilmiy-uslubiy
kengash raisi
t. f. n., dotsent. A. T. Qo‘ldashev

“ ____ ” _____ 2016yil

**«MUHANDISLIK GEOLOGIYASI», « MUHANDISLIK GEOLOGIYASI VA
GIDROGEOLOGIYASI», « MUHANDISLIK GEOLOGIYASI VA GRUNTLAR
MEXANIKASI», «GEOLOGIYA, MINERALOGIYA VA PETROGRAFIYA
ASOSLARI» fanlaridan laboratoriya hamda amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish
uchun**

USLUBIY QO‘LLANMA

5340200 – «Bino va inshootlar qurilishi», **5111000** – «Kasb ta‘limi (**5340200** Bino va inshootlar qurilishi)», **5580800** - «Avtomobil yo‘llari va aerodromlar», **5340300** – «Shahar qurilishi va xo‘jaligi» ta‘lim yo‘nalishlariga mo‘ljallangan

S A M A R Q A N D 2016

UDK 624.131

Mazkur **uslubiy qo'llanma** - 5340200 – «Bino va inshootlar qurilishi», 5111000 – «Kasb ta'limi (5340200 - Bino va inshootlar qurilishi)», 5580800 - «Avtomobil yo'llari va aerodromlar», 5340300 – «Shahar qurilishi va xo'jaligi» ta'lim yo'nalishlarining amaldagi ta'lim va davlat standartlari, «Muxandislik geologiyasi», «Muxandislik geologiyasi va gidrogeologiyasi», «Geologiya, mineralogiya va petrografiya asoslari» fanlarining o'quv va ishchi o'quv dasturlari hamda qurilish me'yorlari- qoidalari (QMQ, SHNQ) talablari asosida tayyorlandi.

Uslubiy ko'llanma «Muhandislik geologiyasi», «Muhandislik geologiyasi va gidrogeologiyasi», «Muhandislik geologiyasi va gruntlar mexanikasi», «Geologiya, mineralogiya va petrografiya asoslari» fanlaridan laboratoriya ishlarini o'quv laboratoriyalarda talabalar tomonidan mustaqil bajarishda, qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Jadvallar -32 ta, rasm – 12ta, bibliografiya – 12 ta.

- Tuzuvchilar:** «Avtomobil yo'llari, zamin va poydevorlar» kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi **Xonkeldiev Muxammadmedi Musaevich**
- «Avtomobil yo'llari, zamin va poydevorlar» kafedrasida mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent **Yakubov Muqimjon Muxtorovich**
- «Avtomobil yo'llari, zamin va poydevorlar» kafedrasida assistenti **Nabieva Nigora Akbarovna**
- «Avtomobil yo'llari, zamin va poydevorlar» kafedrasida assistenti **Ravshanov Akbar Sattorqulovich**
- Taqrizchilar:** «Avtomobil yo'llari, zamin va poydevorlar» kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi, **Madatov Abduraim Madatovich**
- MCHJ « SVP MACKAH »** direktori, texnika fanlari nomzodi, **Usmonov Valiahmad Fayzullaevich**

«**AVTOMOBIL YO'LLARI, ZAMIN VA POYDEVORLAR** » kafedrasida majlisida (2016 yil 15 mart № 8 bayonnomasida) va «**QURILISH**» fakultetining ilmiy – uslubiy kengash yig'ilishida (2016 yil 29 mart № 8 bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

CHiqish belgilari: Sam DAQI. SHakli A 4 . Buyurtma № ... Adadi 10 Hajmi 3, 8 b. t.

KIRISH

Geologiya soʻzi grekcha *geo* – «er», *logos* – «oʻrganaman» degan maʼnoni bildiradi. *Geologiya* – qadimiy fanlardan biri boʻlib, erning ustki va ichki qismlarini va undagi roʻy beradigan mavjud hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganadi. U rasmiy fan sifatida XIX asrda rivojlana boshlagan.

Geologiya faining rivojida uning asoschisi M.Yu.Lomonosov, Sharq mamlakatlarining olimlari Muxammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abul-Abbos Fargʻoniy, Abu Rayxon Beruniylar katta hissa qoʻshishganlar. Jumladan Abu Rayxon Beruniyning «Hindiston» asarida Er sayyorasi haqida umumiy maʼlumotlar keltirilgan.

Geologiya – er haqidagi kompleks ilm boʻlib, uning tuzilishi, rivojlanishi, turli xil geologik jarayonlarni oʻrganadi.

Geologiya bir qator qisimlarga boʻlinadi:

1. **Minerologiya** – minerallar haqidagi fan.
2. **Petrografiya** – togʻ jinslari, ularning kelib chiqishi, tuzilishi va tarkibi haqidagi fan.
3. **Tarixiy geologiya** – erning paydo boʻlishi, va rivojlanishi, undagi hayvonot va oʻsimlik olamini oʻrganuvchi fan.
4. **Geofizika** – er qobigʻi sirtida va er ostida sodir boʻladigan fizik protsesslarni oʻrganuvchi fan.
5. **Dinamik geologiya** – er sirti shaklini oʻzgartiruvchi protsesslarni oʻrganuvchi fan.
6. **Stratigrafiya** – togʻ jinslari qalinligi va qatlamlarning joylashishi sharoitlarini oʻrganuvchi fan.
7. **Gidrogeologiya** – er osti suvlari, ularning kelib chiqishi, harakat qonunlari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini oʻrganuvchi fan.
8. **Muhandislik geologiyasi** – togʻ jinslari fizik va texnik xususiyatlari va geologik protsesslarni oʻrganuvchi fan boʻlib, geologiyaning bitta yoʻnalishidir. Bu fan turli inshootlarning qurilish sharoitlari va tabiiy er massivining turgʻunligini tamʼinlash uchun oʻtkaziladigan muxandis geologik qidiruv ishlari yoʻnalishlarini aniqlab beradi.

Muhandislik geologiyasi fanining asosiy masalalari

1. Togʻ jinslari tarkibi qurilish xususiyatlari va joylashish sharoitlarini aniqlash;
2. Inshootlarning turgʻunligiga taʼsir oʻtkazish mumkin boʻlgan geologik jarayonlarni oʻrganish;
3. Inshoot qurilishi natijasida paydo boʻlishi mumkin boʻlgan muxandis geologik xodisalarni oʻrganish.

I. Tog' jinaslarini hosil qiluvchi minerallar va ularning fizik xossalari

I.1 Minerallar haqida tushuncha.

Mineral tabiiy kimyoviy jins yoki tug'ma element bo'lib, er qobig'ida yoki uning sirtida geologik jarayonlar natijasida hosil bo'ladi.

Minerallarning umumiy soni 3000 ga yaqindir. Ulardan atigi 50 tasi tog' jinslar tashkil qiluvchilar bo'lib, 15 taga yaqin minerallar esa tog' jinslarini tashkil etilishida asosiy rol o'ynaydilar.

Minerallarning hosil bo'lishi

Minerallarning xossalari ko'p jihatdan ularning qanday sharoitda hosil bo'lishiga bog'liqdir. Muxandislik – geologiyasi kursidan bizga ma'lumki, tog' jinslarining paydo bo'lishi, ularning vaqt o'tishi bilan emirilishi natijasida tarkibi va strukturasi o'zgaradi. Bunga sabab bo'lgan jarayonlarga geologik jarayonlar deyiladi.

Geologik jarayonlar - vaqt bo'yicha tez ko'chadigan (vulqon otilishi, er qimir-lashi, tog' ko'chishi va x.z.) va sekin – astalik bilan bir necha o'n, yuz, ming yillar davom etadigan (grunt yotkiziqlari, erroziya v. k. z.) bo'ladi.

Barcha geologik jarayonlarni ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

1 – erining ichki dinamikasi – endogen faktorlari.

2 – erining tashqi dinamikasi – ekzogen faktorlari.

Endogen faktorlar asosan er ostida sodir bo'ladi. Bunga vulqon, vulqon mahsuloti – magma va metamorfizm kiradi.

Magma er qobig'i – litosferaga kirib er ustiga chiqa olmasdan ma'lum chuqurlikda batolitlar, lakkolitlar, shtokalar va daykalar xosil qilishi, er ustiga otilib chiqib lava oqimi xolida to'planishi mumkin. Birinchi holni magmaning **intruziyasi** (joylashishi) deb aytiladi, bunda hosil bo'lgan tog' jinslari esa intruziv magmatik tog' jinslari deb ataladi. Ikkinchi holni magmaning **effuziyasi** (otilib chiqishi deb aytiladi) hosil bo'lgan tog' jinslari esa effuziv magmatik tog' jinslari deb ataladi. Bu hollarning har ikkalasida ham magmatik tog' jinslari hosil bo'ladi.

Murakkab fizik – kimyoviy jarayonlarning (yuqori temperatura bosimning) tog' jinslariga ta'siri natijasida ularning strukturasi va tarkibining o'zgarishi **metamorfizm** deb ataladi. Metamorfizm natijasida metamorfik tog' jinslari hosil bo'ladi.

Metamorfik tog' jinslarining tarkibini xlorit, talk, andoluzit, granit, seretsit, gilli, talkli, slyudali va xloridli slanslar, fillitlar, gneyslar, marmar toshlar va kvarslar tashkil qiladi.

Ekzogen faktorlar fizik-mexanik va kimyoviy ta'sirlar natijasida tog' jinslari emiriladi, ularning tarkibi va tuzilishi o'zgaradi natijada cho'kindi tog' jinslari hosil bo'ladi. Bularga qumlar, qumtoşlar, gillar va organik cho'kindi tog' jinslari kiradi

Fizik ta'sirlar natijasida emirilish deganda nima tushuniladi?

Bu jarayon asosan temperaturaning keskin o'zgarishi, sovuqning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Fizik ta'sirlar natijasida tog' jinslari mayda bo'laklarga bo'linadi, lekin uning minerologik tarkibi o'zgarmaydi.

Kimyoviy ta'sirlar natijasida emirilish deganda nima tushuniladi?

Bu jarayonda suv, kislorod va karbonat angidridi ta'sirida tog' jinslarining tarkibi emiriladi, turli tarkibdagi, kichik o'lchamli (1 mkm) kolloidsimon zarrachalarga bo'linadi. Olingan mahsulotning o'zining minerologik tarkibi bilan oldingisidan tubdan farq qiladi. Tog' jinslarining kimyoviy ta'sirlar natijasida emirilishidan qumli, gilli va organo- mineralogik gruntlarning har xil turlari paydo bo'ladi.

Cho'kindi tog' jinslari asosan er tosh qobig'ining ustki qatlamida to'planib, uning quruqlik yuzasining 75% ini qoplagan bo'lib, er qobig'ining esa 5% ini tashkil etadi. Cho'kindi tog' jinslari suv, shamol va boshqa agentlar ta'sirida bir joydan ikkinchi joyga ko'chadigan, er yuzasi, dengiz, ko'l, daryolarda to'planadi. Cho'kindi tog' jinslari o'simlik hamda xayvonot olamining qoldiqlaridan ham hosil bo'ladi. Cho'kindi tog' jinslarining qalinligi bir necha santimetrdan, bir necha yuz metr, ba'zan esa bir necha kilometrga etadi. Masalan Farg'ona vodiysida cho'kindi tog' jinslarining qalinligi 1500 m ni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytsek endogen va ekzogen faktorlarning ta'siri natijasida tog' jinslari hosil bo'ladi. Ular fizik va kimyoviy ta'sirlar natijasida emiriladi va mineral hosil bo'ladi. Demak mineral bu er tosh qobig'i – litosferani fizik (mexanik) va kimyoviy ta'sirlar natijasida emirilishidan hosil bo'lgan maxsulot.

Minerallar agregat holati, hosil bo'lish sharoiti, tog' jinslarini tashkil etishda qatnashish darajasi kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflarga ajratiladi.

a). Agregat holati bo'yicha:

1. **qattiq jismlar** (dala shpatlari, kvars va boshqalar);
2. **suyuq minerallar** (suv, neft, simob va boshqalar);
3. **gazsimon** (etan, butan, propan).

b). Hosil bo'lish sharoiti bo'yicha:

1. **Endogen faktorlar** - asosan er ostida sodir bo'ladi. Bunga vulqon, vulqon mahsuloti kiradi
2. **Ekzogen faktorlar** - fizik-mexanik va kimyoviy ta'sirlar natijasida tog' jinslari emiriladi, ularning tarkibi va tuzilishi o'zgaradi natijada cho'kindi tog' jinslari hosil bo'ladi. Bularga qumlar, qumtoshlar, gillar va organik cho'kindi tog' jinslari kiradi.
3. **Metamorfik** – oldin hosil bo'lgan minerallarning yuqori harorat va yuqori bosim ta'sirida o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan minerallar kiradi .

v). Tog' jinslarini tashkil etishda qatnashish darajasi bo'yicha:

1. **Asosiylari** – u yoki bu jinsning hosil bo'lishida har doim qatnashadi. Dala shpatlari er qobig'ining 58% tashkil etadi, kvars–13 % va h.k.
2. **Ikkinchi darajali minerallar**. Tabiiy jinslarning kam qismini tashkil etadi. Lekin tog' jinslarining xususiyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.
3. **Noyob minerallar** – tog' jinslarini hosil bo'lishida ishtirok etmaydi.

Kimyoviy tarkibi bo'yicha minerallar tug'ma, goloidli, sulfidli, okidli, gidroksidli, kislorodli kislotalar tuzlardan iborat bo'ladi. Minerallarning kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflarga ajratish 1 - jadvalda keltirilgan.

Minerallarni kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflarga ajratish jadvali

Nº	Sinfi	Nomi	Kimyoviy ifodasi	Kelib chiqishi
1	Tug'ma	oltin, platina, oltingugurt	Au, Pt, S	turlicha
2	Goloidlar	agalit, silvin	$NaCl, KCl$	qorishmalardan
3	Sulfidlar	Pirit	FeS_2	turlicha
4	Gidroksisel, okisel	Kvars	SiO_2	kristallizatsiya
5	Kislorodli kislotalar tuzlari:			
	a) karbonatlar	kalsit, dolomit	$CaCO_3, CaMg(CO_3)_2$	qorishmalardan
	b) sulfatlar	gips, angidrit	$CaSO_4 \cdot 2H_2O, CaSO_4$	qorishmalardan
	v) silikatlar va aminokislotalar	1) dala shpatlari:		
		a) ortoklaz	$K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$	Magmaning sovishi natijasida
		b) plagio-klazlar	$K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2 + CaO \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$	
			↑ ↑	
		albit	100...90% 0...10%	
		oligoklaz	90...70% 10...30%	
		andezit	70...50% 30...50%	
		labrador	50...30% 50...70%	
		bitovnit	30...10% 70...90%	
		anortit	10...0% 90...100%	
		2) rogovaya obmanka, slyuda	murakkab	Magmaning sovishi natijasida
		3) loyli minerallar (montmorillonit, kaolinit, gidroslyuda)	murakkab	Magmaning sovishi natijasida

I.2. Minerallarning fizik xossalari.

Asosiy tabiiy jinslarni tashkil etuvchi minerallarni ularning fizik xususiyatlariga qarab aniqlash mumkin. Minerallarning fizik xususiyatlariga uning quyidagi xossalari kiradi:

1. Qattiqliqi – minerallarning tashqi mexanik ta'sirlariga bo'lgan qarshilik ko'rsata olish qobiliyati.

Minerallarning qattiqligi **Moos shkalasi** bo'yicha aniqlanadi. Bu shkala bo'yicha har bir mineral o'z qattiqligiga ega. **Moos shkalasi:**

1 – talk	2 – gips	3 – kalsit	4 – flyorit	5 – apatit	6 – dala shpati	7 – kvars	8 – topaz	9 – korund	10 – olmos
----------	----------	------------	-------------	------------	-----------------	-----------	-----------	------------	------------

2. Rang: och rangli – kvars, gips, albit, ortoklaz, kalsit; to'q rangli – labrador, rogovaya obmanka.

3. Yaltiroqligi – mineralning yorug'lik nurini qaytarish xususiyatiga egaligi.

Barcha minerallar yaltiroqligi bo'yicha 2 guruhga bo'linadi:

a) metallik yaltiroq – pirit, magnetit, grafit, rogovaya obmanka;

b) nometallik yaltiroq:

shishasimon – dala shpatlari, kalsit;

shoisimon – asbest, tolali gips;

perlamutrli – slyuda, talk, plastinkali gips;

yog‘li – kvars, oltingugurt;

xira – kaolin, magnezit.

4. **SHaffofliqi** – minerallarning o‘zidan yorug‘lik nurlarini o‘tkaza olish qobiliyati (o‘ta o‘tkazuvchan, o‘rtacha, kuchsiz, o‘tkazuvchanlik mavjud emas);

5. **Ulanish sirtining mavjudliqi** – mineralning xaqiqiy yoki mumkin bo‘lgan qirralariga parallel tekisliklar xosil qilib parchalanish qobiliyati:

a) ***o‘ta mukammal*** – qo‘l kuchi bilan engil varoqlarga ajraladi (slyuda);

b) ***mukammal*** – zarba natijasida tekis sirt xosil qilib parchalanadi (kalsit);

v) ***nomukammal*** – zarba natijasida notekis sirtlar bilan chegaralangan tasodifiy shakldagi parchalarga bo‘linadi (labrador, rogovaya obmanka);

mavjud emas – kvars.

6. **Siniq parchasi** – bo‘linishda mineral sirtining shakli quyidagicha bo‘ladi : tekis, notekis, zirapchali, chig‘anoqli.

7. **Solishtirma og‘irligi**:

a) ***engillari*** $-\gamma < 2,5 \text{ g/sm}^3$;

b) ***o‘rtachalari*** $\gamma = 2,5...4,0 \text{ g/sm}^3$;

v) ***og‘irlari*** $-\gamma > 4,0 \text{ g/sm}^3$.

8. **O‘ziga hos xususiyatlari**: tami (achchiqtosh), hidi (oltngugurt), tuzli kislota bilan munosabati (kalsit, dolomit).

9. Minerallarni sinflarga ajratish bo‘yicha to‘liq ma’lumot 1.-ilovada kelti-rilgan.

I.3. 1 - topshiriq. Tog‘ jinaslarini hosil qiluvchi minerallar bilan tanishish , ularning fizik xossalarini aniqlash va tasnifini yozish.

I.3.1. Tajriba o‘tkazish uchun kerakli asboblari, jihozlar va ashyolar:

Minerallar kolleksiyasi (tashqi belgilari aniq va o‘lchamlari 5x7x3sm dan kam bo‘lmasligi kerak); minerallarni aniqlash uchun jadvallar va sxemalar; Mossning qattiqlik shkalasi; agarda Moss shkalasi bo‘lmasa, uning o‘rniga quyidagilardan foydalanish mumkin:

grafitli yumshoq qalam – qattiqlik darajsi 1,0; tirnoq, qattiqlik darajsi – 2,5; mix yoki sim qattiqlik darajsi – 4,0; shisha qattiqlik darajsi – 5; po‘lat pichok , tikuv ignasi qattiqlik darajsi – 6; kvars qattiqlik darajsi – 7.

I.3.2. Ishni bajarish tartibi

1. Talaba tog‘ jinaslarini hosil qiluvchi minerallar namunalarini minerallar kolleksiyasidan ajratib olishi, ularning fizik xossalarini o‘rganishi va tasnifini yozishi uchun unga shifr (variant) beriladi. Talabaniing guruh jurnalidagi tartib raqami, uning varianti sifatida qabul qilinadi;

2. Tanlangan variant asosida 3-jadvaldan minerallarning nomi aniqlanib

4 - jadvalga kiritadi va ularni minerallar kolleksiyasidan ajratib olinadi.

Tanlangan variant bo'yicha minerallarning nomini tanlash jadvali

№ vari- anta	Minerallarning nomi	№ vari- anta	Minerallarning nomi	№ vari- anta	Minerallarning nomi
1	Almaz	9	YAshma	17	Gips
	Olivinit		Kremnnyy		Dalit
	Ametist		Magnezit		Angidrit
	Marion		Xalsedon		Magnezit
	Gábbro		Kaolit		Dala shpati
2	Sienit	10	Grafit	18	Fasforit
	Peridotit		YAshma		Angidrid
	Kvarsit		Najdak		Apatit
	Granit		Gematit		Gips
	Dunit		Magnetit		Gips
3	Andezit	11	Xromit	19	Biotit
	Riołit		Flyuorit		Magnezit
	Pridatit		Xalsedon		Kaolin
	Olivin		SHpat		Dalomit
	Fosforit		Limonit		Talk
4	Avgit	12	Topaz	20	Apatit
	Kvarsit		Muskovit		Dala shpati
	Magnetit		Biotit		Fosforit
	Topaz		Kaolin		Sionit
	Traxit		Talk		Siderit
5	Biotit	13	Pirit	21	Dolomit
	Magnezit		Galit		Talk
	Kaolin		Kvars		Pridatit
	Dalomit		Galenit		Olivin
	Talk		Xalsedon		Fosforit
6	Apatit	14	Agat	22	Avgit
	Dala shpati		Boksit		Kvarsit
	Fosforit		Limonit		Magnezit
	Sionit		Topaz		Topaz
	Siderit		Muskovit		Traxit
7	Gips	15	Almaz	23	Almaz
	Dalit		Pemza		Pemza
	Angidrit		Ametist		Ametist
	Magnezit		Marion		Marion
	Dala shpati		Kvars		Kvars
8	Fasforit	16	Mramor	24	Mramor
	Angidrid		Diabaz		Diabaz
	Apatit		Kvarsit		Kvarsit
	Gips		Granit		Granit
	Oltingugurt		Talk		Dunit

3. Minerallar kolleksiyasidan ajratib olingan tog' jinslarini hosil qiluvchi minerallar namunalarining fizik xossalari, kaysi toifaga, guruxga yoki turga mansubligi asosli dalillar bilan, ya'ni ularning mineralogik tarkibi, strukturasi, teksturasi, rangi, hajmiy og'irligi va boshqa belgilarini, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatmalar va internet hamda 1, 2 – ilovada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib talaba tomonidan to'liq o'rganiladi va tasnif yoziladi

4. Talaba tomonidan o'rganib, tasnif qilingan minerallar 4-jadvalga quyidagi tartibda kiritiladi: minerallarning nomi, kimyoviy tarkibi, sinfi, tashqi belgilari: – yaltiroqligi, rangi, chizgandagi rangi, qattiqligi, zichligi; kelib chiqishi; ishlatilish sohasi.

3 - jadval

Tanlangan variant bo'yicha tog' jinslarini hosil qiluvchi minerallar namunalari bilan tanishish, ularning fizik xossalari hamda tashqi belgilarini o'rganish asosida namu-naning nomini aniqlash bo'yicha olingan natijalarni qayd etish jurnali:

Va-ri-ant №	Mineral-larning nomi	kimyoviy tarkibi. va sinfi	Rangi	Yaltiroq-ligi	Qattiq - ligi	Zichligi	Kelib chikishi	Ishlatilish soxasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Eslatma: Minerallarning rangini tabiiy yorug'likda aniqlash kerak, chunki sun'iy yorug'likda rangi o'zgarib ko'rinishi mumkin. Yana shuni e'tiborga olish kerakki minerallarning quruq holatidagi rangi, namlangan holatidagi rangidan farq qiladi. Shuning uchun namunaning rangini aniqlaganimizda uning namlik holatini ham ifodalash kerak

I.4. Tog' jinslarini hosil qiluvchi minerallar namunalari bilan tanishish, ularning fizik xossalari hamda tashqi belgilarini o'rganish asosida nomini aniqlashga doir misol:

Misol. Minerallar kolleksiyasidan olingan namuna agregatlarining kristallari o'tkir uchli zarrachalaridan iborat. Kristallar lupa ostida qaranganda kub shaklida, mineral kuchli metalsimon yaltiroqlikka ega, rangi sarg'ash – tillarang, chiziqlichasing rangi zangorisimon qora. Mineral shishada chizik qoldiradi, lekin kvarsda iz qoldirolmaydi, demak uning qattikligi – 6. sinish tekisligi noteks, qatlamlilik yo'q.

Aniqlangan belgilarni minerallarni aniqlash jadvali bilan taqqoslab bu mineral sulfatlar sinfidagi «pirit» ekanligini aniqlaymiz.

Ko'p sonli minerallar guruhlarini o'rganayotganda ularni quyida keltirilgan jadval ko'rinishda ifodalash tavsiya qilinadi (5 – jadval).

4- jadval

Tog' jinaslarini hosil qiluvchi minerallar namunalari bilan tanishish , ularning fizik xossalari hamda tashqi belgilarini o'rganish asosida nomini aniqlashga doir misol

Vari- ant №	Mine- rallar-ning nomi	Kimyoviy tarkibi. va sinf	Rangi	Yaltiroqligi	Kattik- ligi	Zichligi	Kelib chikishi	Eslatmalar, ishlatilish soxasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9
	Olmos	C sof ele- menlar	Rangsiz, oq, och havorang, yashil, sarg'ish	yaltiroq, shaf- fof, har xil spektorda nur tarqatadi.	10	3,47- 3,55	Magm-tik	Zargarlikda, burg'ulash, me- tall qirqish va jilov berishda ishlatiladi.
	Pirit (oltin- gugurt kolche- dani)	FeS Sulfatlar (oltingu- gurtli bi- rikmalar)	Sargish	Metallsimon	6-6;5	4,9 – 5,2	Meto- morfik, cho'kindi	Oltinugurt kislotasi olishda ishlatiladi
	Galit (tosh tuzi)	NaCl galoidlar	Rangsiz ok, tu- tunsimon qiz- g'ish, ko'kimtir	Shishasimon yogli	2,0– 2,5	2,1- 2,6	CHO'kin- di	Ozik ovkat va ximiya sanoatida xom ashyo
	Magnezit	MgCO ₃ karbonat- lar	Oq ko'kimtir	Shishasimon g'ubor	3,5-4,5	3-3,1	CHO'kin- di	Issikga chidam-li kurilish materiali olishda
	Mis	Cu , Sof ele- mentlar	Och pushti, qi- zil, jigarrang.	Metalldek shaffof emas	2,5-3	8,5-8,9	Magma- tik, cho'kindi .	Elektronika, mashinasozlik- da qotishmalar (bronza, mel- xior) olinadi.

II. Magmatik tog' jinslarini tashqi belgilariga qarab o'rganish va ularning turini aniqlash

II.1. Tog' jinslari haqida ma'lumot.

Tog' jinslari er qobig'ini tashkil qiluvchi mineral sifatida o'zlarining kelib chiqishi yoki hosil bo'lishiga qarab bir biridan farq qiladi. Tog' jinslari kelib chiqishi bo'yicha uch toifaga bo'linadi:

1. Magmatik ;
2. CHukindi;
3. Metamorfik.

Er qobig'ida magmatik tog' jinslari 87%, metamorfik tog' jinslari 8%, cho'kin-di tog' jinslari esa 5% ni tashkil qiladi.

Bizga ma'lum bo'lgan xar kanday tog' jinsi shu uch toifaning borortasiga mansub bo'lishi mumkin. Masalan: granit – magmatik tog' jinsi; loyli gruntlar – cho'kindi tog' jinsi; marmar – metamorfik tog' jinsi.

II.2. Magmatik tog' jinslari.

Magma (grekcha so'z. «μαγμα» – *quyuq massa*) – murakkab tarkibga ega bo'lgan cho'g'li massa. Magma o'choqlari radioaktiv elementlar yig'ilgan joyda mantiyaning sirtida yoki Er qobig'ining pastki qismida hosil bo'ladi.

Magma Er qobig'i – litosferaga kirib Er ustiga chiqa olmasdan ma'lum chuqur-likda batolitlar, lakkolitlar, shtokalar va daykalar xosil qilishi, er ustiga otilib chiqib lava oqimi holida to'planishi mumkin (3.1 va 32 – rasmlar).

Birinchi holni magmanin **intruziyasi** (joylashishi) deb aytiladi, bunda hosil bo'lgan tog' jinslari esa intruziv magmatik tog' jinslari deb ataladi.


Ikkinchi holni magmaning **effuziyasi** (otilib chiqishi deb aytiladi) hosil bo'l-gan tog' jinslari esa effuziv magmatik tog' jinslari deb ataladi.

Bu ikki holatda ham bir xil magmadan bir xil tarkibli, lekin turli tuzilish-dagi magmatik tog' jinslari xosil bo'ladi.


Tog' jinslari ichki tuzilishi deganda tog' jinslarini tashkil etuvchi minerallar - ning miqdori, o'lchamlari, shakli va o'zaro bog'lanish usullari tushuniladi. Tog' jinslarining ichki tuzilishi magmaning sovishi jarayonida shakllanadi va unig sovish sharoiti va tezligiga bog'liq bo'ladi. Magmaning sovish sharoitlari Er yuzasi va chuqurlikda turlichadir. Katta chuqurlikda xosil bo'lgan jinslar yuqori bosim ostida sekin va bir tekisda sovish sharoitida shakllanadi, quyma jinslar esa magmaning past bosim ostida va past haroratda tez sovish sharoitida shakl-lanadi

II.2.1. Magmatik tog jinslarining tarkibi.

Xamma magmatik (otkindi) tog' jinslari kuyidagi oksidlardan iborat bulgan murakkab tarkibga ega buladi: SiO_2 , Ae_2O_3 , FeO , Fe_2O_3 , Na_2O , K_2O , MqO , CaO , TiO_2 , MnO , LiO_2 va boshkalar. Turli jinslarda bu oksidlarning protsent mikdori turlicha. Magmatik tog jinsining ximiyaviy tarkibini aniklovchi asosiy oksid SiO_2 -kremniy oksidi xisoblanadi. Kremniy oksidi barcha magmatik tog jinslari tarkibida bulib, ularning nordon ($> 65\%$), urtacha ($65\text{-}52\%$), asosiy ($52\text{-}40\%$) yoki ultraasosiy ($<40\%$) guruxlarga mansubligini aniklaydi.



1. Rasm.Vulkan



2.rasm. Magmatizm

Nordon jinslar kup mikdorda kalsiy va natriyga ega buladi. Tog jinsi asosiy jinslarga yakinlashgan sari Na_2O va K_2O kamayib boradi va aksincha MgO xamda FeO oshib boradi.

Magmatik tog jinslarini tashkil kiluvchi asosiy minerallarga dala shpati, kvars, slyuda, shox aldamchisi, avgit, olivinlar kiradi.

Tog jinsining u yoki bu guruxga mansubligini bilish uchun uning mineralogik tarkibiga e'tibor berish kerak. Tarkibida rangli minerallar kup bulgan koramtir jinslar asosiy yoki uiltraasosiy guruxga mansub buladi. Tog jinsi tarkibida dala shpatining yukligi uning ultraasosiy guruxdan ekanligiga dalolat beradi.

Agar rangdor jinsda kvars zarrachalari anik kurinib tursa bu nordon jinsdir, chunki kolgan, tarkibida SiO_2 kam bulgan jinslar tarkibida kvars yuq yoki qariyb yuk.

II.2.2. Magmatik tog jinslarining struktura va teksturalari.

Tog jinslarining strukturasida deganda ularni tashkil etuvchi minerallarning shakli, mikdoriy nisbati, kristallanganlik darajasi va uzaro joylashishiga bogliq bulgan ichki tuzilish tushiniladi. Magmatik tog jinslarida kuyidagi strukturalar mavjud

1. To'liq kristallangan (zarrachalar);
2. To'liq kristallanmagan (kristallar va amorf shishaning birgalikda bo'lishi);
3. Shishasimon strukturaga ega (shisha yoki shisha bilan birgalikda kam miqdordagi kristallar).

Zarrachalarning o'lchamlari bo'yicha: yirik zarrachali (o'lchamlari 5mm dan yukori bo'lgan), o'rta zarrachali (2 - 5mm) va mayda zarrachali (2mm dan kichik) strukturalar farqlanadi.

O'lchamlarning bir xil yoki bir xil emasligi bo'yicha tekis bir xil zarrachali va notekis zarrachali strukturalar bo'ladi.

To'liq kristallangan struktura intruziv (chuqurlikda qotuvchi) jinslarga ko'proq xosdir, to'liq kristallanmagan va shishasimon strukturalar esa effuziv (yuzada qotgan) jinslarga xosdir.

Magmatik tog' jinslarining teksturasi deganda tog' jinslari qismlarining xajmda fazoviy joylashuvi tushuniladi. Magmatik tog' jinslariga quyidagi teksturalar xarakterli:

1. Massivsimon – fazoviy xajmda jinslar bir tekis zich joylashgan tekstura;
2. Polosasimon – turli mineral tarkibdagi yoki turli strukturadagi jins-larning almashib takrorlanishi xarakterli bo'lgan tekstura.
3. Shlakli – kuzga tashlanarli bushliklari bulgan tekstura.

II.2.3. Magmatik tog' jinslarining tasnifi.

Magmatik tog' jinslari – er qobig'ini tashkil etuvchi zich va bo'sh mineral massalarining yig'indisidan iborat. Tog' jinslarining umumiy soni 1000 yaqin. Ular birbiridan mineral tarkibi va kelib chiqishlari bilan farq qiladi. Tog' jinslari quyidagicha tasniflanadi:

1. Minerallar tarkibi bo'yicha:

a) oddiy (monomineral): gips, achchiqtosh;

b) murakkab (polimineral): granit, dala shpati, kvars, slyuda, rogovaya obmanka

2. Kelib chiqishi bo'yicha:

chuqurlikda xosil bo'lgan (*intruziv*);

quyilish natijasida hosil bo'lgan (*effuziv*).

Cho'kma;

Parchalangan (bo'lakli): bo'sh; qattiq;

Kimyoviy;

Organogen: zoogenli; fitogenli;

Metamorfik: kontaktli; maxalliy (regional).

II.2.4. Magmatik tog' jinslarining strukturasi, teksturasi va ichki tuzilishi.

Magmatik tog' jinslarining strukturasi deganda ularni tashkil etuvchi minerallarning shakli, mikdoriy nisbati, kristallanganlik darajasi va o'zaro joylashishiga bogliq bulgan ichki tuzilish tushiniladi. Magmatik tog jinslarida quyidagi strukturalar farklanadi:

1. To'liq kristallangan (zarrachali);
2. To'liq kristallanmagan (kristal zarrachalar va amorf shishaning birga-likda bo'lishi);
3. Shishasimon struktura (shisha yoki shisha bilan birgalikda kam miqdordagi kristallar).

Katta chuqurlikda hosil bo'lgan magmatik tog' jinslari bir xil strukturaga ega. Ular kristalli zarrachalarning o'lchamlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

yirik kukunli ($d > 5 \text{ mm}$); o'rtacha kukunli ($d = 5 \dots 1 \text{ mm}$); mayda kukunli ($d < 1 \text{ mm}$); turli o'lchamdagi kukunli;

Quyma magmatik tog' jinslari ichki tuzilishi bo'yicha 3ta strukturaga bo'linadi:

Porfirlangan – siniq parchasida mineralning donalari ko'rinib turadi ;

Yopiq kristalli – kristallarni oddiy ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydi (diabaz);

Shishasimon – amorf massa (obsidian).

Magmatik tog' jinslarining teksturasi – jins xajmida tabiiy mineral zarrachalarining fazoviy joylashishi va taqsimlanishiga aytiladi. Magmatik tog' jinslarining tekstura ko'rinishlari: massivli, g'ovakli, qatlamli, slanetsli bo'ladi.


Chuqurlikdagi magmatik tog' jinslar massiv (zich) teksturaga (granit), quymalari massiv (obsidian) yoki g'ovakli (shlaksimon) teksturaga (bazaltli lava) ega.

II.2.5. Magmatik tog' jinslarining joylashish shakllari

Chuqurlikdagi jinslar uchun quyidagi joylashish shakllari xarakterlidir:

1. Platformalar; 2. Batolitlar; 3. Shtoklar; 4. Lakkolitlar; 5. Paylar;
6. Daykalar.

Quyma magmatik tog' jinslari quyidagicha joylashadilar: 1. Gumbazlar; 2. Qoplamalar; 3. Lava oqimlari.




3-rasm. Magmatik jinslarning yotish sharoitlari va shakllari
(Yu.M.Vasilev bo'yicha)

Platformalar katta maydonga ega bo'lgan tekislik bo'lib, Er qobig'i sirtida tog' jinslarining cho'kishi natijasida hosil bo'ladi.

MDH xududida ikkita platforma mavjud:

- 1 – Rus platformasi – Kola yarim orolidan Qora dengizgacha;
- 2 – Sibir platformasi – Lena va Enisey daryolari, Baykal ko'li va SHimoliy muz okeani oralig'ida joylashgan.

Platforma chegarasida magmatik tog' jinslarining er yuzasiga chiqishi shtich deyiladi. Shtichlar magmatik tog' jinslarini qazib olishda qulay karer bo'lib hisoblanadi



4-rasm. Platforma

Batolit (yunoncha *batos* – tosh, *litos* – chuqur degani) – magmatik tog' jinslarining qing'ir shaklli yirik massivi, pastlashgan sara kengaya boradi va mantiyaga kirishib ketadi.

Lakkolit (grech. **λακκος** – o‘ra, erto‘la) – magmaning cho‘kindi jinslar qatlamlariga kirishib ketishi natijasida xosil bo‘lgan qo‘ziqorin shaklidagi massiv. Ularning xosil bo‘lishi tog‘lar massivlarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Paylar – Er qobig‘i yoriqlariga magmaning kirishi natijasida xosil bo‘ladi. Turli xildagi mineral xomashyolarning paydo bo‘lishi paylar bilan bog‘liq.

Daykalar – parallel devorli paylar.

Qoplamalar – Erning gorizontal sirtiga magmalarning quyilishidan xosil bo‘lgan ulkan maydon.

Oqimlar – Er yuzasida uzunasiga joylashgan magmatik tog‘ jinslari. Qiyaliklarga magmaning oqishi natijasida xosil bo‘ladi.

Gumbaz – to‘ntarilgan qozon shalidagi massiv

II.2.6. Magmatik tog‘ jinslarini sinflarga ajratish

Magmatik tog‘ jinslarini sinflarga ajratish jinslar tarkibida SiO_2 ulushiga bog‘liqdir. Jins tarkibida SiO_2 kam bo‘lsa, bunday jismlarni polirovka qilish oson kechadi.

5 - Jadval

Magmatik tog‘ jinslari sinflari:

Jins tarkibi		Jinsning nomi	
SiO_2 , % ning ulushi	Minerallar	chuqurlikdagi	Quyma
nordon SiO_2 , 75 - 65%	kvars, dala shpatlari, slyuda	granit	kvarsli porfir
o‘rtacha SiO_2 , 65...52%	dala shpatlari, rogovaya obmanka, biotit	sienit, diorit	ortoklazli porfir, andezit
asosiy SiO_2 , 52...40%	labrador, avgit, olivin	gabbro	diabaz, bazalt
Ultra asosiy SiO_2 , 40% dan kam	olivin, avgit, kon minerallari	peridotit, dunit	

II.2.7. Magmatik tog‘ jinslari massivlaridagi yoriqlar va bo‘laklar.

Magmaning sovishi jarayonida tog‘ jinslari massivida yoriqlar paydo bo‘ladi, bu yoriqlar massivni alohida bloklarga (bo‘laklarga) ajratadi, ularning shakli magmaning quyilish sharoitlariga bog‘liq. Bloklarning shakllari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

matratssimon – chuqurlik jinslari uchun xarakterli;

ustunsimon – magmaning Er sirtiga quyilishi natijasida xosil bo‘ladi;

bloklarning sharsimon shakli – jinslarning suv ostiga quyilishi natijasida xosil bo‘ladi. Yoriqlar tog‘ massivlarini bo‘shashtiradi, lekin ularga ishlov berishni ancha osonlashtiradi. Portlatish ishlari va ishlov berish yo‘nalishlarini tanlashda bloklar ko‘rinishlarini xisobga olish kerak.

II.2.8. Magmatik tog‘ jinslaridan qurilishda foydalanish

Magmatik tog‘ jinslaridan asos sifatida foydalanish mumkin agar, tog‘ jinslari massivida yoriqlar bo‘lmasa; qurilish va bezak materiali sifatida ishlatish mumkin.

Qurilishda, mayda shag‘al (granit, sienit), ishlov berish materiali (granit, sienit, labradorit, gabbro), yo‘l qoplamasi (diabaz, bazaltli lava); engil va og‘ir betonlarga qo‘shimcha (porfirit, kvarsli porfir, bazaltli lava), issiqlikni ushlab turuvchi material (pemza) sifatida

II.3. 2-topshiriq. Magmatik tog‘ jinslarini tashqi belgilariga qarab o‘rganish va ularning turini aniqlash.

II.3.1. Tajriba o‘tkazish uchun kerakli asboblari, jihozlar va ashyolar:

Minerallar kolleksiyasi (tashqi belgilari aniq va o‘lchamlari 5x7x3sm dan kam bo‘lmasligi kerak); minerallarni aniqlash uchun jadvallar va sxemalar; Mossning qattqlik shkalasi; agarda Moss shkalasi bo‘lmasa, uning o‘rniga quyidagilardan foydalanish mumkin: grafitli yumshoq qalam – qattqlik darajasi 1,0; tirnoq, qattqlik darajasi – 2,5; shisha qattqlik darajasi – 5; mix yoki sim qattqlik darajasi – 4,0; po‘lat pichok, tikuv ignasi qattqlik darajasi – 6; kvars qattqlik darajasi – 7.

II.3.2. Ishni bajarish tartibi

1. Talaba magmatik tog‘ jinslari bilan namunada tanishishi, ularning fizik xossalarini aniqlashi va tasnifini yozish bo‘yicha variant tanlashi uchun unga shifr beriladi. Talabaning guruh jurnalidagi tartib raqami, uning shifri (varianti) sifatida qabul qilinadi;
2. Tanlangan variant asosida, talaba magmatik tog‘ jinslari namunalari nomini **8** – jadvaldan olib, 7 –jadvalga kiritadi va ularni minerallar kolleksiyasidan ajratib oladi.,
3. Minerallar kolleksiyasidan ajratib olingan magmatik tog‘ jinslarining fizik xossalari, kaysi toifaga, guruxga yoki turga mansubligi asosli dalillar bilan, ya‘ni ularning mineralogik tarkibi, strukturasi, teksturasi, rangi, og‘irligi va boshqa belgilarini, o‘quv qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatmalar, internet hamda 1, 2 – ilovalarda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanib talaba tomonidan to‘liq o‘rganiladi va tasnif yoziladi
4. Talaba tomonidan o‘rganib, tasnif qilingan magmatik tog‘ jinslari, 6-jadvalga kiritiladi.

6 – jadval

Tanlangan variant bo‘yicha magmatik tog‘ jinslarining namunalari bilan tanishish, ularning fizik xossalarini hamda tashqi belgilarini o‘rganish asosida namunaning nomini aniqlash bo‘yicha olingan natijalarni qayd etish jurnali

Vari- ant №	Tog‘ jinsi- ning nomi	Struk- turasi	Tekstu- rasi	Kislotaliligi bo‘yicha gruhi	Rangi	Tarkibidagi minerallar miqdori. %	Jins hosil qiluvchi mi- nerallari
1	2	3	5	6	7	8	9

7 – jadval

Tanlangan variant bo'yicha magmatik tog' jinslarining nomini tanlash jadvali

Vari- ant №	Magmatik tog' jinslarining nomi	Vari- ant №	Magmatik tog' jinslarining nomi	Vari- ant №	Magmatik tog' jinslarining nomi
1	Granit	9	Andezit porfirit	17	Diorit
	Porfirsimon granit		Diorit andezit		Diorit –porfirit
	Alyaksit		Gabbro		Kersantit
	Dolerit		DoleritG		Spessartit
	Bazalt		Bazalt		Bazalt
2	Plagiogranit	10	Gabbro-dorit	18	Dunit
	Normal granit		Norit		Andezit
	Alyaksit		Labrodorit		Diabaz
	Dunit		Diabaz		Granit
	Peridotit		Dolerit		Norit
3	Granodiorit	11	Porfirsimon granit	19	Alyaksit
	Granodiorit porfir		Alyaksit		Granodiorit
	Dasit (plagiodatsit)		Granit		Granit
	Sienit		Larvikit		Porfirsimon granit
	Sienit-aplit		Metandezit		Sienit
4	Dolerit	12	Fonolit	20	Pegmatit
	Bazalt		Plagiogranit		Liparit
	Granit porfir		Normal granit		Alyaksit
	Spilit		Alyaskit		Dolerit
	Dunit		Dunit		Bazalt
5	Aplit	13	Peridotit	21	Spessarti t
	Pegmatit		Granodiorit		Andezit
	Liparit		Dasit (plagiodatsit)		Gabbro-dorit
	Bazalt		Sienit		Osidian
	Dunit		Gabbro-dorit		Felzit
6	Kvarsli porfir	14	Datsit porfir	22	Gabbro-dorit
	Osidian		Mikrogranit		Norit
	Felzit		Granit porfir		Aplit
	Dolerit		Spilit		Pegmatit
	Bazalt		Dunit		Liparit
7	Pemza	15	Aplit	23	Bazalt
	Diorit		Pegmatit		Dolerit
	Diorit -porfirit		Liparit		Bazalt
	Bazalt		Bazalt		Gabbro-dorit
	Dunit		Kvarsli porfir		Norit
8	Kersantit	16	Osidian	24	Sienit-aplit
	Spessartit		Felzit		Spilit
	Andezit		Andezit		Gabbro-dorit
	Pegmatit		Dolerit		Dunit
	Granodiorit		Porfirsimon granit		Alyaksit

8- jadval

Magmatik tog' jinslari namunalari bilan tanishish , ularning fizik xossalarini hamda tashqi belgildrini o'rganish asosida nomini aniqlashga doir misollar

Variant №	Tog' jinsi- ning nomi	Strukturasi	Teksturasi	Kislotaliligi bo'yicha gruhi Zichligi	Rangi	Kimyoviy. tarkibi (tarkibidagi minerallar miqdori %)	Jins hosil qiluvchi minerallari
1	2	3	5	6	7	8	9
X	Sienit	To'liq kristallangan, mayda donali	Massivli	Si O_2 o'rtacha	Kul rang va pushti rang	SiO_2 52-65 %)	Rogovaya obmanka, biotit, piroksin, olivin
	Pridatit	To'liq kristallangan	Massivli	$(\text{Mg,Fe})_2[\text{SiO}_4]_{3,2}$	YAshil, yashil push-ti rang	Olivin (30-70 %) va $(\text{Mg, Fe})_2. [\text{SiO}_4]$, piroksen (30-70 %),	Platina, mis, nikel gruhi metallarinig qazilma boylikliklarining kelib chiqishida asosiy rol o'ynaydi
	Muskovit (kaleyli slyuda)	Shisha-simon	Massivli	$\text{K,AL} \cdot [\text{FeMg}]_2 \cdot [\text{AlSi}_2\text{O}_{10}] \cdot$ zichligi 2,8	Rangsiz, sarg'ish, ko'kimtir, binafsha rang	Kaleyli dala shpati, 20-60 %, nefelin 20-30 %, lepido-melan 5-20 %), amfibol 20% , albit-oligo-klaz 20 %,	Elektrizolyasion material sifatida ishloa'tiladi.
	Biotit (kora slyuda)	Shisha-simon	Massivli	$\text{K(Mg,Fe)}_3. (\text{OH,F})_2[(\text{Al, Fe}) \text{Si}_3\text{O}_n]$ alyumosilikat. Zichligi 2,5.	Qora, to'q zangori sarg'ish tillo rang.	Si_3O_n, 65...52%	Feldshpatoidlar turiga kiradi, leysit , sodalit, nefelin (eleolit), nozsan va gayuin va lazuritlarni kelib chiqishida asosiy rol o'ynaydi.
	Apatit	Shisha-simon	Massivli	$\text{Sa}_5 (\text{F. S1. ON}) [\text{R0}_4]_3$ zichligi 3,2	Rangsiz, yashil, ko'k, binafsha sariq rang		Ikkinchi darajali minerallar turiga kiradi Fosforli o'g'itlar olish-da ishlatiladi

III.Cho‘kindi tog‘ jinslari

III.1. Cho‘kindi tog‘ jinslari haqida umumiy ma’lumot

Cho‘kindi tog‘ jinslari – birlamchi tog‘ jinslarining fizikaviy va kimyoviy ta’sirlar natijasida emirilishidan (nurashidan) hosil bo‘lgan , suv va havo muxitida to‘plangan va cho‘kkan maxsulot bo‘lib , keyinchalik cho‘kindilar sifatida zichlangan va sementlashgan bo‘ladi.

Nurash (emirilish) – bu minerallar va tog‘ jinslarining fizikaviy va kimyoviy ta’sirlar natijasida emirilish jarayonlarining yig‘indisidir. **Nurash (emirilish)** jarayoning asosiy omillari:

1.Fizikaviy ta’sirlar natijasida nurash (emirilish)

Bu jarayon asosan haroratning tebranishi, tog‘ jinslari yoriqlarida suvning muzlashi, erishi, suv, muzliklar va shamolning mexanik ta’siri.natijasida yuzaga keladi. Fizikaviy ta’sirlar natijasida tog‘ jinslari mayda bo‘laklarga bo‘linadi, lekin uning minerologik tarkibi o‘zgarmaydi.

2.Kimyoviy ta’sirlar natijasida nurash (emirilish).

Bu jarayon Erning utki qobig‘ida suvning aylanishida natijasida kimyoviy ta’- sirlari, atmosferadagi gazlarning va suv tarkibida erigan holdagi gazlarning ta’sirida tog‘ jinslarining tarkibi emiriladi, turli tarkibdagi, kichik o‘l - chamli (1 mkm) kolloidsimon zarrachalarga bo‘linadi. Olingan mahsulot o‘zi -ning minerologik tarkibi bilan oldingisidan tubdan farq qiladi. Tog‘ jins -larining kimyoviy ta’sirlar natijasida emirilishidan qumli, gilli va orga -no- mineralogik gruntlarning har xil turlari hosil bo‘ladi.

3. Biologik nurash (emirilish). O‘simliklar va xayvonot olamidagi bo‘ladigan jarayonlar ta’sirida hosil bo‘lgan mahsulotlar.

4. Gidratatsiya natijasida nurash (emirilish).

5. Zanglash natijasida nurash (emirilish).

6.Kaolinizatsiya natijasida nurash (emirilish).

Litosferaning nurash jarayoni kechadigan sohasiga nurash zonasi deyiladi. Bu erda mujassamlashgan jinslarning emirilish jarayoni bo‘lib nurash qobig‘ini tashkil etadi.Nurash zonasi quyidagicha taqsimlanadi:

zamonaviy nurash zonasi, ya’ni Er qobig‘ining eng ustki qismi. Bu zona uchun kolloidlar xosil bo‘lish sharoitini yaratuvchi muhit sharoitining o‘zgaruvchanligi (harorat, namlik va b.) xarakterlidir;

asriy va **chuqurlikdagi** nurash zonasi. Bu erda doimiy harorat va tepa qismidagi qatlamlar bosimi ostida kristallik jismlarning paydo bo‘lish jarayoni bo‘lib o‘tadi (kolloidlar eskirishi).

Tog‘ jinslarining nurashi natijasida xosil bo‘lgan jinslarning o‘z joyida qolgan qismiga **elyuviy** yoki **elyuvial yotqiziqlar** deyiladi, ya’ni **elyuviy** – bu zamonaviy nurash soxasi bo‘lib, maxalliy jinsning nurashi natijasida xosil bo‘ladi.

III.2. Cho‘kindi tog‘ jinslarining hosil bo‘lish bosqichlari.

Fizikaviy va kimyoviy nurash;

Nurash maxsulotlarining suv yoki havo yordamida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib (qorishma yoki parcha ko‘rinishida) grunt yotqiziqlarini hosil qiladi;

Nurash (emirilish) maxsulotlarining yotqiziqlari:

fizikaviy nurash maxsulotlari ko‘rinishida (turli siniq parchalar);
suvli qorishmalarda tuzlarning cho‘kishi natijasida;
jonzoqlar va o‘simliklar faoliyati natijasida.

Diagenез – bo‘sh (yumshoq) cho‘kindidan jinsning shakllanishi – cho‘kindining tog‘ jinsiga aylanish jarayoni.


III.3. Cho‘kindi tog‘ jinslari tasnifi.

Cho‘kindi tog‘ jinslari sinflari: kelib chiqishi bo‘yicha: siniq parchali: bo‘sh (yumshoq), sementlashgan (qattiq); organogen; kimyoviy;

xosil bo‘lish sharoitlari bo‘yicha: kontinental (quruqlikda) hamda dengiz sharoitida;

III.4. Cho‘kindi tog‘ jinslariga xos xususiyatlari.

1) qatlamlilik – yotqizilish sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli tarkibli, turli rangli va turli qalinlikdagi qatlamlarning ketma-ket kelishi. 4.1- rasmda cho‘kindi tog‘ jinslarining qatlamli joylashishi tasvirlangan:



5-rasm.Cho‘kindi tog‘ jinslari

1– plast – qalinligi 0,5 m gacha va katta uzunlikka ega bo‘lgan cho‘kindi tog‘ jinslari qatlami; 2 – oraliq qatlam – bir jins qatlami ichida joylashgan qalinligi 0,5 m gacha bo‘lgan boshqa qatlam; 3 – linza – kichik masofada bir qatlam ichiga kiribib kelgan boshqa qatlam; 4 – chiquvchi qatlam – bir tomoni kamayib boruvchi qatlam; 5, 6 – plastlar chegaralari (ustki – tom, pastki - tovon

2) g‘ovaklilik – cho‘kindi tog‘ jinslariga xos xususiyat bo‘lib, jinsning yuk ta’sirida siqiluvchanligi va suv o‘tkazish qobiliyatini bildiradi. G‘ovaklik hajm birligida olingan grunt g‘ovakliklari hajmi V_p ni, uning umumiy hajmiga nisbati bilan o‘lchanadigan kattalikka aytiladi va P bilan belgilanadi.



6-rasm. Tog‘ jinslarining strukturasi

$$\Pi = \frac{V_p}{V}$$

Odatda cho‘kindi tog‘ jinslarining g‘ovaklilik 35 - 50% tashkil etadi. Muxandislikgeologisi va gruntlar mexanikasida ko‘pchilik hollarda g‘ovaklik koeffitsienti – e ishlatiladi. Bu koeffitsient qumli gruntlarning zichligini aniqlab beradi va ularning klassifikatsion ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Gruntning g‘ovaklik koeffitsienti – e , hajm birligidagi grunt g‘ovakliklari hajmi - V_p ni, uning qattiq zarrachalar hajmi - V_d , ga bo‘lgan nisbat tushuniladi :

$$e = \frac{V_n}{V_d} \quad (9)$$

Siqiluvchanlik g'ovakliklar xajmi - V_p ning kamayishi xisobiga ro'y beradi.

3) Cho'kindi tog' jinslarining tarkibi va xususiyatlari ularni qanday iqlim sharoitida hosil bo'lishiga bog'liq bo'ladi:

siniq parchalar shaklida keskin kontinental iqlim sharoitida xosil bo'ladi.

kimyoviylar – jazirama issiq iqlim sharoitida xosil bo'ladi;

organogen – nam va issiq iqlim sharoitida xosil bo'ladi.

4) Cho'kindi tog' jinslarining qatlamlarida dengiz o'simliklari hamda unda yashaydigan hayvonot olamining qoldiqlari mavjudligi.

5) Cho'kindi tog' jinslari mustaxkamligi, magmatik tog' jinslari mustaxkamligiga nisbatan kam bo'ladi (zarrachalar orasida bog'lanishning mavjud emasligi, ikkilamchi minerallarning mavjudligi)

Siniq parchali cho'kindi tog' jinslarining tasnifi.

